

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
(2019-yil 1-aprel holatiga)

2019-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 1964 ta korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1002 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3622 ta (18,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 22852 tani tashkil etgan.












Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3011	2960	291
 Sanoat	2965	2925	452
 Qurilish	2834	2775	206
 Savdo	5476	5391	607
 Tashish va saqlash	820	803	46
 Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	987	969	108
 Axborot va aloqa	258	248	9
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	524	521	28
 Boshqa turlari	6399	6260	217



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019-yilning 1-aprel holatiga 23274 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 23,5 % savdo, 12,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,7 % sanoat, 12,2 % qurilish, 4,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,1 % axborot va aloqa hamda 27,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (4975 ta), Chiroqchi (1897 ta), Koson (1893 ta) va Qarshi (1746 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirishkor (760 ta), Nishon (854 ta) hamda Muborak (863 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, *mingda*.





✚ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 22852 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3622 ta (18,8 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,6 % savdo, 13,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,8 % sanoat, 12,1 % qurilish, 4,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 27,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (4785 ta), Chiroqchi (1876 ta), Koson (1867 ta), Qarshi (1727 ta) va Kitob (1620 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirishkor (757 ta), Muborak (832 ta) hamda Nishon (847 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.04.2017 y.

• 19433 ta

01.04.2018 y.

• 19230 ta

01.04.2019 y.


• 22852 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019-yil yanvar-mart oylarida 1964 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,0 marta ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahri (357 ta), Chiroqchi (183 ta), Kasbi (146 ta) va Kitob (141 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Muborak (53 ta), Dehqonobod (72 ta) hamda G'uzor (83 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatgichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (607 ta), sanoat (452 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (291 ta) va qurilish (206 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (9 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (28 ta) hamda tashish va saqlash (46 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.04.2017 y.		01.04.2018 y.		01.04.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	767	100	962	100	1964	100
Savdo	160	20,9	169	17,6	607	30,9
Sanoat	166	21,6	140	14,6	452	23,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	198	25,8	151	15,7	291	14,8
Qurilish	78	10,2	114	11,9	206	10,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	52	6,8	38	4,0	108	5,5
Tashish va saqlash	21	2,7	19	2,0	46	2,3
Axborot va aloqa	11	1,4	9	0,9	9	0,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	1,0	25	2,6	28	1,4
Boshqa turlari	73	9,5	297	30,9	217	11,0

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALAR

2019-yil 1-aprel holatiga 18184 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 7940 ta, oilaviy korxonalar – 864 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 8873 ta va boshqalar 507 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.


2019-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 114 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 59 taga yoki 20,0 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 88 tasi qo'shma korxonalar, 26 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar (37 ta yoki jamiidagi ulushi 32,5 %), Kitob tumani (12 ta yoki 10,5 %) va Qarshi tumanlari (9 ta yoki 7,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mirishkor (2 ta yoki 1,8 %), Dehqonobod (3 ta yoki 2,6 %), Nishon tumanlari (3 ta yoki 2,6 %), va Shahrisabz shahar (3 ta yoki 2,6 %), hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 68 tani (59,6 %), savdoda 15 tani (13,2 %) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 12 tani (10,5 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (0,9 %), tashish va saqlashda 2 tani (1,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 tani (3,5 %), qurilishda 7 tani (6,1 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 28 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 5 ta, Turkiya Respublikasi – 4 ta, Qozog'iston Respublikasi – 3 ta, Turkmaniston – 2 ta, Tojikiston Respublikasi – 2 ta, Eron Islom Respublikasi – 2 ta, Belorussiya Respublikasi – 2 ta, Afg'oniston – 2 ta, Hindiston Respublikasi – 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yil davomida, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (17 ta), savdo (4 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3 ta), qurilish (3 ta) va (1 ta) boshqa turdagi xizmatlar ko'satish hissasiga to'g'ri keladi.





Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.


2019-yil 1-aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 18051 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 aprel holatiga qaraganda 21,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3938 tasi (21,8 %) Qarshi shahri, 1505 tasi (8,3 %) Koson, 1465 tasi (8,1 %) Chiroqchi, 1430 tasi (7,9 %) Qarshi tumani, 1305 tasi (7,2 %) Kitob tumani, 1270 tasi (7,0 %) Shahrisabz shahri, 1250 tasi (6,9 %) Qamashi tumani, 1230 tasi (6,8 %) Yakkabog' tumani, 1180 tasi (6,5 %) Dehqonobod tumani, 1150 tasi (6,4 %) G'uzor tumani, 1120 tasi (6,2 %) Shahrisabz tumani, 1080 tasi (6,0 %) Muborak tumani, 1050 tasi (5,8 %) Kasbi tumani, 1020 tasi (5,6 %) Nishon tumani, 980 tasi (5,4 %) Mirishkor tumani, 950 tasi (5,3 %) tashkil qilgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 18051 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5363 tasi (29,7 %) – savdo, 2929 tasi (16,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2882 tasi (16,0 %) - sanoat, 2755 tasi (15,3 %) - qurilish, 955 tasi (5,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 788 tasi (4,4 %) - tashish va saqlash, 394 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 243 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1742 tasi (9,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-mart oylarida 1802 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 57,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (326 ta), Chiroqchi (172 ta), Kitob (139 ta) va Kasbi tumanlari (136 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (49 ta), Dehqonobod (64 ta) hamda Nishon (75 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (599 ta), sanoatda (450 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (289 ta), qurilishda (205 ta) va tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (9 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (28 ta) hamda tashish va saqlashda (46 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-aprel holatiga 879 tani tashkil etib, ulardan 864 tasi yoki 98,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 0,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,9 % yoki 258 tasi sanoat, 19,8 % yoki 171 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,2 % yoki 157 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 17,6 % yoki 152 tasi savdo, 2,7 % yoki 23 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,7 % yoki 15 tasi qurilish, 1,2 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,2 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 8,8 % yoki 76 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-mart oylarida jami 215 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.


Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2017-yilda 283 ta, 2018-yilda 286 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, 2019-yilning yanvar-mart oyilarida ushbu ko'rsatkich 215 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 71 taga tugatish kamaygan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 223 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 48 tasi (21,5 %) savdo, 40 tasi (17,9 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 31 tasi (13,9 %) sanoat, 29 tasi (13,0 %) qurilish, 9 tasi (4,0 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda 54 tasi (24,2 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi savdo, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.04.2018 yil		01.04.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	215	100,0	223	100,0	8
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	35	16,3	40	17,9	5
sanoat	21	9,8	31	13,9	10
qurilish	32	14,9	29	13,0	-3
savdo	77	35,8	48	21,5	-29
tashish va saqlash	7	3,3	7	3,1	0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	0,9	9	4,0	7
axborot va aloqa	3	1,4	3	1,3	0
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	1,4	2	0,9	-1
boshqa turlari	35	16,3	54	24,2	19

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2019-yil yanvar-mart oylarida 191 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 14 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 48 tasi (25,1 %) savdo, 39 tasi (20,4 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 31 tasi (16,2 %) sanoat, 29 tasi (15,2 %) qurilish, 9 tasi (4,7 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7 tasi (3,7 %) tashish va saqlash hamda 24 tasi (12,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Qarshi shahrida -15 ta, Yakkabog' tumanida - 14 ta, Qarshi tumanida - 7 ta hamda Mirishkor tumanida - 4 ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan ko'p tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.



Statistik registrarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-84-10 (11)
Tel.:75-221-17-93